

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Н.Н.Бобоҷонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashev

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'llimda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrplashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlerning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

ТАРИХ**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



УО'К:371.012+37.017

O'ZBEKISTONDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARI VA RAHBAR KADRLAR FAOLIYATI

ПРОЦЕССЫ МОДЕРНИЗАЦИИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РУКОВОДСТВЕННОГО ПЕРСОНАЛА В УЗБЕКИСТАНЕ

MODERNIZATION PROCESSES AND ACTIVITIES OF MANAGEMENT STAFF IN UZBEKISTAN

Arzimatova Inoyatxon Madimarovna

Farg'onan davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqolada jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotida rahbarning o'rni va roli, rahbarning shaxsi va boshqaruvchilik xususiyatlari, rahbar dunyoqarashi, yuksak axloqi, erkin va chuqur fikrlashi, yangicha tafakkurga asoslanishi masalalari o'rganilgan. Yangilanish jarayonlari shaxsdan yangicha yondashuv, yangicha fikrlashni, shaxs ongi va tafakkurining ham yangilanishini taqozo etadi. Har qanday progressiv tashabbus ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangandagina, u amaliyotga aylanadi. Bu sohada, ayniqsa, rahbarning o'rni va tutgan yo'li muhim bo'lib, uning xatti-harakatlari va faoliyati u rahbarlik qilayotgan jamoa yoki yo'nalishning ham faoliyatini belgilaydi. Shuningdek, yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi jamiyat va uning a'zolari oldiga boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, zamon talablari va ruhiga mos bo'lgan rahbarlarning yangi shaklini tarbiyalab, shakllantirish vazifasini qo'yayotganligi tahlil etilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются место и роль лидера в социально-экономической и культурно-духовной жизни общества, его личность и управленческие характеристики, мировоззрение лидера, высокая мораль, свободное и глубокое мышление, основанное на новом образе мышления. Процессы обновления требуют нового подхода, нового образа мышления, обновления разума и мышления человека. Любая прогрессивная инициатива становится практикой только тогда, когда ее поддерживает большинство. В этой области особенно важны позиция и путь, избранный лидером, а его действия и деятельность определяют деятельность коллектива или направления, которым он руководит. Также проанализировано, что стратегия становления нового Узбекистана ставит перед обществом и его членами задачу дальнейшего совершенствования системы управления, воспитания и формирования новой формы лидеров, соответствующих требованиям и духу времени.

Abstract

The article examines the place and role of a leader in the socio-economic and cultural-spiritual life of society, his personality and managerial characteristics, the leader's worldview, high morality, free and deep thinking based on a new way of thinking. Renewal processes require a new approach, a new way of thinking, renewal of the mind and thinking of a person. Any progressive initiative becomes a practice only when it is supported by the majority. In this area, the position and path chosen by the leader are especially important, and his actions and activities determine the activities of the team or direction that he leads. It is also analyzed that the strategy for the formation of a new Uzbekistan sets before society and its members the task of further improving the management system, education and formation of a new form of leaders that meet the requirements and spirit of the times.

Kalit so'zlar: jamiyat, rahbar, tashkilot, guruh, boshqaruvchilik xususiyati, dunyoqarash, yangilanish jarayonlari, ijtimoiy hayot, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, boshqaruv tizimi.

Ключевые слова: общество, лидер, организация, группа, особенности управления, мировоззрение, процессы обновления, общественная жизнь, материальное и духовное производство, система управления.

Key words: society, leader, organization, group, management features, worldview, renewal processes, social life, material and spiritual production, management system.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyoti va uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotida jamiyatning yetakchisi – rahbarning o'rni va roli muhim ahamiyat kasb etadi. "Yetakchi", "yo'lboshchi", "sardor", "rahbar" tushunchalari deyarli sinonim bo'lib, bir xil ma'no beradi. Rahbar eng umumiy ma'noda ma'lum jamoa, tashkilot, guruhga bosh bo'lib, unga yetakchilik qiluvchi shaxsdir. Odatda rahbarning quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratiladi: boshqaruvchiligi, bilimliligi, mustaqil fikrga ega bo'lishi, strategik manfaatlarni boshqalarga nisbatan chuqurroq anglashi, tashabbuskorligi, jamoa a'zolarini

FALSAFA

yagona maqsad asosida birlashtira olishi, tadbirkorlik xususiyatiga egaligi, innovatsiyalarga ochiq va kreativligi hamda boshqalar.

Rahbarga bir tomonidan, shaxs sifatida va ikkinchi tomonidan, tashkilotchi, jamoa faoliyatini to'g'ri tashkil etuvchi va unga yetakchilik qila olishi nuqtai nazardan qarash mumkin. Faoliyatining asosiy jihatni boshqaruvchilik bo'lgani tufayli rahbarning boshqaruvchilik xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. "Rahbar (yo'lboshchi, sardor, yetakchi) davlat, tashkilotga doimiy va hal qiluvchi ta'sirga ega bo'lgan shaxs. Rahbar ishning ko'zini biladigan, jamoa, soha manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritadigan boshqaruv xodimidir. Rahbarlik aql-farosat, kuch-g'ayrat, topqirlikni, o'z ustida tinmay ishlashni, tadbirkorlikni talab qiladi" [1, B. 100-101].

Demak, rahbarning shaxsi va boshqaruvchilik xususiyatlari u yetakchilik qilayotgan tashkilot yoki jamoa faoliyatining qanday amalga oshishi, muvaffaqiyatlarga erishishi yoki aksincha, oldiga qo'yilgan vazifani bajara olmasligi kabi jihatlariga kuchli ta'sir etadi.

Jamiyatning o'tish davrlari, unda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, modernizatsiya va innovatsiya jaaryonlarining amalga oshuvi davrida rahbar faoliyati jamiyat kelajagi va istiqbollarini belgilab berishda katta o'rinn tutadi. Chunki jamiyat taraqqiyotining burilish davrida jamiyatning oldida turgan vazifalar har bir shaxsdan yangicha fikrash, yangicha yondashuv, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, befarq bo'lmashlik kabi xususiyatlarni namoyon etishni talab etadi. Yangilanish jarayoni jamiyat a'zolarining ham ongi va tafakkuri, madaniyati, ma'naviyatining ham yangilanishini, tashabbuskorlikni dolzarb qilib qo'yadi. "Bugun hayotning o'zi bizdan davlat xizmati tizimini yanada samarali tashkil etish, ushbu yo'nalishda ham professional, tezkor tuzilmalarni shakllantirishni talab qilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, islohotlarimizdan ko'zlangan maqsad-muddaolarni yaxshi anglaydigan, xalqimizning Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishiga chin dildan yordam beradigan, halol-pok kadrlarni tarbiyalash vazifasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda" [2, B. 3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlarida rahbar kadrlar faoliyatining falsafiy jihatlarini yoritishda Nazarov Q. [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev [2], s.f.d., prof. Alisher Fayzullayev bilan suhbat [3], Abu Nasr Forobi [4], O'zbekiston Prezidentining parlamentga Murojaatnomasi [5, 6], Yangi O'zbekiston gazetasi 2023-yil 22-fevral, 36-son [7] asarlaridan unumli foydalanildi.

Muammoni o'rganishda umumiyl o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, mavhumlikdan aniqlikka yuksalish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish usullari qo'llanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangilanish jarayonlari shaxsdan yangicha yondashuv, yangicha fikrashni, shaxs ongi va tafakkurining ham yangilanishini taqozo etadi. Har qanday progressiv tashabbus ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangandagina, u amaliyotga aylanadi. Bu sohada, ayniqsa, rahbarning o'rnii va tutgan yo'li muhim bo'lib, uning xatti-harakatlari va faoliyati u rahbarlik qilayotgan jamoa yoki yo'nalishning ham faoliyatini belgilaydi. Rahbar dunyoqarashi, yuksak axloq, erkin va chuqur fikrash, yangicha tafakkurga asoslanishi talab etiladi. "Bugun bizga mas'uliyatni dadil zimmasiga oladigan, bilimli, dunyoqarashi keng, madaniyatl, huquqiy ongi kuchli, qat'iyatl, bir so'z bilan aytganda, zamonaviy rahbarlar kerak. Barcha jabhalarda shiddatli raqobat kechayotgan hozirgi davrda rahbarlar zimmasidagi mas'uliyat va ularga qo'yilayotgan talablar kuchaymoqda. Turli bo'g'indagi rahbarlar nafaqat yetakchilik qobiliyati, odob-axloqi va muomala madaniyati bilan ham o'mak bo'lishi lozim. Zero, muomala, odob-axloq madaniyatimizning muhim mezonlaridandir" [3, B. 8].

Rahbarni eng umumiyl holda ijtimoiy shaxs, subyekt sifatida e'tirof etib, uning ijtimoiy hayot, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish hamda madaniy-ma'naviy sohada turli insonlarning ijtimoiy faoliyatini tashkil etishda yetakchi bo'lgan, tashkilotchilik xususiyatlariga va intellektual, ma'naviy salohiyatga ega bo'lgan, boshqalarga nisbatan ko'proq bo'lajak hodisalarini oldindan ko'ra biladigan shaxs deyish mumkin. Rahbarning yana bir xususiyati uning qo'l ostida ishlaydigan ko'plab xodimlarning faoliyatini yo'liga qo'yish, tartibga solish va yo'naltirish bilan bog'liq.

Rahbar faoliyat ko'rsatayotgan sohada boshqalarga nisbatan dadillik xususiyati kuchli bo'lib, u qaror qabul qila olish, oldindan xodimlarning xatti-harakatlarini zarur tomonga yo'naltirish salohiyatiga ega. Uning faoliyatida kreativlik, yangilikka intilish, jamoa faoliyatiga innovatsiyalarni olib kirish va ulardan foydalana bilish kabi xususiyatlarning aks etishi jamoa faoliyatini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi. "Rahbarlik san'ati shundayki, rahbarga boshqa san'at-hunar egalari ham bo'ysunadilar. Boshqa san'at-hunarlarning maqsadlari shahar – davlat rahbarining maqsadi uchun xizmat qilishdan

iboratdir. Rahbar esa aqliy quvvati va tasavvur quvvati jihatidan har tomonlama kamol topgan, eng yetuk odam bo'lishi zarur. Uning ta'sirchan aqli barcha so'zlarning mazmun-mohiyatini to'la-to'kis bilishi kerak" [4, B. 243-244].

Jamiyatda progressiv yangilik va innovatsiyalarning tarqalishi ko'pchilikning qo'llab-quvvatlashi asosida amalga oshadi. Dastlab g'oya sifatida paydo bo'lgan yangiliklarning amaliyotga aylanishi, avvalo tashabbuskor, faol insonlar va albatta, qayd etilgan xususiyatlarga ega bo'lgan rahbarning roli va tutgan yo'liga ko'p jihatdan bog'liq.

Hozirgi davrda jamiyatning barcha bo'g'inlarida rahbarlarga o'rnak bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs – davlatimiz yetakchisi, Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning faoliyatini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, modernizatsiya, tadbiq qilinayotgan innovatsiyalarning haqiqiy tashabbuskori sifatida e'tirof etish mumkin. Uning tinib-tinchimasligi, aholimizning hayotda mavjud turli muammolarga murosasizligi hamda ularni bartaraf etishga intilayotganligi va bu jarayonga barcha sohalarda rahbarlik lavozimida ishlayotgan xodimlarni jalb etayotganligi albatta, ko'pchilik tomonidan tan olinmoqda. Prezident faoliyatini xalqimiz qo'llab-quvvatlamoqda. U jamiyatning barcha a'zolarini islohotlar jarayonida ishtirok etishga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga chaqirmaqda.

Davlat yetakchisining ichki va tashqi siyosatda amalga oshirayotgan islohotlariga xorijiy mutaxassislar va siyosatchilar ham e'tibor qaratmoqdalar. Masalan, belgilaylik Moliya va iqtisodiyot eksperti, Yevrokomissiya va Yevropa tashqi ishlar xizmatining sobiq yetakchi xodimi Andre Mogni bu borada quyidagicha fikr bildiradi: "Davlat rahbari aholini islohotlar jarayoniga jalb etishga intilmoqda, toki ularning natijalaridan hamma birdek bahramand bo'lishi ta'minlansin, degan xulosaga keldim. Shunisi juda muhimki, Shavkat Mirziyoyevning taraqqiyot dasturi barqaror rivojlanish yo'llari hamda jamiyat hayotining barcha qirrasini qamrab olgan.

"O'zbekiston yetakchisi islohotlarni jadallashtirish, qator jabhalarga mo'ljallangan dasturlarni hayotga tatbiq qilish zarurligini ta'kidladi. Bu shubhasiz, aholi hayotining sifati va darajasini oshirishga, respublikaning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashadi" [5].

Hozirgi kunda O'zbekiston davlati olib borayotgan tashqi siyosat sohasida ko'pvektorli, pragmatizmga asoslangan, dunyoda globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa jarayonlarga moslashuvchan yo'lni tanladi. Mazkur siyosatning asosida "Markazi Osiyo – bosh ustuvor yo'nalish" tamoyili yotadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev faoliyatining dastlabki kunlaridan olib, qo'shni davlatlar bilan aloqani yaxshi yo'lga qo'yishga harakat qildi, barcha tomonlar uchun foydali bo'lgan o'zaro hamkorlik siyosatini amalga oshira boshladi. Mazkur tashqi siyosat barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda plyuralizmga, o'zaro hamkorlikka asoslangan bo'lib, teng huquqli dialogni taqozo etadi. Bunday tashqi siyosat albatta, mamlakatimizning jozibadorligini oshiradi va tashqi investitsiyalarning kirib kelishiga imkoniyatlar yaratadi."

O'zbekiston rahbari tomonidan tanlangan mintaqaviy globallashuv doirasida amalga oshirilayotgan tashqi siyosat barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga oladi. Tashqi siyosatda bunday yondashuv mamlakatimizning manfaatlari, kelajak istiqbollari jahonning ijtimoiy-madaniy makonida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan holda mustahkam o'rin egallashiga imkon beradi. Bu jarayonlarda davlatimiz yetakchisining rahbarlik salohiyati, ya'ni uzoqni ko'ra bilishi, strategik qarorlarni qabul qila olishi va bunga kishilarni ishontirishi, siyosiy kreativligi, xalqaro munosabatlarda innovatsiyalarni qo'llay olishi kabi liderlik xususiyatlari muhim rol o'ynamoqda. Bu – real pragmatik siyosat bo'lib, unda jamiyat taraqqiyotining bugungi ehtiyojlari bilan birga kelajak talablari ham hisobga olinmoqda. Ta'kidlash mumkinki, davlatimiz rahbari mamlakatda barcha sohalarda yangilanish jarayonining tashabbuskori, Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasining muallifi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari ichki siyosatda muntazam yoshlarga aloqador muammolarga e'tibor qaratib kelmoqda. Bu tadbirkorlikmi, yoshlarning ta'lim olishi, uyushmagan yoshlarni ish bilan ta'minlashmi, o'qishni istagan yosh xotin-qizlarga foizsiz kreditlarning ajratilishi va boshqalar rahbarning e'tiboridan chetda qolayotgani yo'q. Ayniqsa, bu borada yoshlar siyosatining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining strategik yo'nalishlaridan biri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan bir qator Farmonlar va Qarorlar yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Xususan, bu borada "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi, "O'zbekiston yoshlar Ittifoqi"ning tashkil etilishi, "O'zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasi"ning tuzilishi yoshlarning ulkan armiyasini to'g'ri yo'naltirish, ularni zamon talablari asosida tarbiyalash, salohiyatini yuksaltirish, faoliyatini to'g'ri tashkil

FALSAFA

etilishida katta ahamiyat kasb etadi. "Bu haqda so'z yuritganda, aytish lozimki, biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetaricha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat" [6, B. 79].

Ma'lumki, zamонави boshqaruв tizimi zamon talablari asosida o'zgarib bormoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi jamiyat va uning a'zolari oldiga boshqaruв tizimini yanada takomillashtirish, zamon talablari va ruhiga mos bo'lgan rahbarlarning yangi shaklini tarbiyalab, shakllantirish vazifasini qo'yemoqda. Bunday rahbar kasbiy sifatlari bilan bir qatorda jamiyatda qaror topgan milliy qadriyatlar, kasbiy, huquqiy, siyosiy, ma'naviy qoidalarga amal qiluvchi yuksak ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-axloqiy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs bo'lishi talab etilmoqda. "Rahbar ma'naviy shakllangani boshqaruvningadolatli, xolis, ochiq, mas'uliyatli, ishbilarmonlik, to'g'ri va tezkor qarorlar qabul qilishga, insonlarni maqsad sari birlashtirish va harakatlanirish mahoratiga, bugungi davr siyosiy islohotlarini amalga oshirishga har tomonlama tayyorligi, tajriba va liderlik ko'nkmalariga egaligi bilan baholanadi" [7].

Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotida murakkab davrning yuzaga kelishi, iqtisodiy va tadbirkorlik muhitining nisbatan murakkab kechayotganligi, yuqori intellektual salohiyatli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, ularning oldiga qo'yilayotgan yuksak talablar, islohotlar va modernizatsiya jarayonlariga bog'liq holda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar rahbar kadriardan uning kasbiy faoliyatiga tegishli bo'lgan ko'nkmalarinigina emas, yuksak madaniy-ma'naviy, axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida o'zini namoyon etishini talab etilmoqda. Jamiyat sohalarining barcha yo'nalishlarida tobora raqobat kuchayib borayotgan hozirgi kunda zamонави rahbarning oldida o'ziga xos shaxsiy sifatlarga ega bo'lism, o'z jamoasining taraqqiyotini hamda raqobatbardoshligini ta'minlash, jamoaning strategik taraqqiy etish yo'nalishini to'g'ri belgilash vazifasini bajarish turibdi. Bu ishlarni amalga oshirish jarayonida rahbar tomonidan jamoaning har bir a'zosining maqsadi va manfaatlarini, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ularning salohiyatini yuzaga chiqarish va realizatsiya qila olish uchun imkoniyatlar yaratishdek vazifalarni bajarish turibdi. Buning uchun rahbar o'z tanlagan yo'li, jamoa oldiga qo'ygan vazifalar hamda strategiyasini talablarga javob bera olishi hamda to'g'ri tanlanganligini jamoaning ongiga singdira olishi va ularni ishontira olishi talab etiladi.

"Zamonaviy rahbardin talab etiladigan birinchi vazifa – bu jamoani samarali boshqara olishni ta'minlashdan iborat. Bu jarayonda jamoa a'zolarining o'zaro hamjihatligi muhim bo'lib, buni ta'minlash rahbarning yetakchilik qobiliyatiga va o'zaro to'g'ri munosabatni xodimlar o'tasida tashkil eta olishiga bog'liq. Bunda jamoa a'zolarining bir-biriga o'zaro manfaatli va malakaviy ta'siri muhim bo'lib, jamoaning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday hamjihatlik muhitini ta'minlash esa rahbarning yetakchilik xususiyatlariga bog'liq."

"Zamonaviy rahbarning muhim xususiyatlaridan yana biri – jamoa a'zolarining intellektual va kasbiy salohiyatini, malakasini to'g'ri aniqlash va bu salohiyatni yuzaga chiqarish va rivojlantirish uchun imkoniyatlar va munosib sharoit yaratib berishdan iborat. Chunki bu vazifani bajarish jamoa, korxona yoki tashkilotning muvaffaqiyatlari faoliyat olib borishini hamda barcha sohalarda ilg'or bo'lib, foyda ko'rishini ta'minlaydi. Bunda rahbarning yetakchilik xususiyatlari uning o'zигагина emas, balki jamoaning ham taraqqiyotiga xizmat qiladi." Natijada jamoada hamkorlik, o'zaro yordam, o'zaro ishonch, o'zini va jamoani doimiy rivojlantirib va faoliyatini takomillashtirib borishga intilish, jamoa faoliyatiga innovatsiyalarni tadbiq etib borish, ish jarayonini muntazam qulay texnologiyalar asosida rivojlantirib borish muhiti shakllanadi.

Ishlab chiqarish korxonalari haqida so'z borganda, albatta, ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashuvi bilan bog'liq muammolar nazarda tutiladi. Bu jarayonlarda jamoaning rahbari – yetakchisining butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib harakat qilishi, uning yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning joriy etishi kabi muhim xatti-harakatlari iqtisodiy korxona va jamoalarning hayotiyligini hamda raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Rahbar bunday sharoitda jamoa va uning tizimlari faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi.

Bu o'rinda yetakchi hamda yetakchilik nazariyalarini va bu muammoga yondashuvlarni tahlil etish rahbarlik hamda yetakchilik xususiyatlarini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. Rahbarlik va yetakchilik jamoaning mehnat faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yetakchilik

korxona va jamoa faoliyatini tizimli tashkil etish mexanizmining muhim elementi hisoblanadi. Bunda jamoa faoliyatini yetakchi tomonidan to'g'ri yo'lga qo'yish hamda tashkil etish muammosining hal etilishi yetakchining o'z sohasidagi salohiyati asosida amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilganda, rahbar kadrlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirishda davlat xizmati personalini boshqarish tizimini demokratik qadriyatlar asosida takomillashtirish, bunda kadrlarga bo'lgan munosabatni insoniylashtirish, ularga siyosiy qadriyat sifatida yondashish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Umuman, demokratiya va fuqarolik jamiyat sharoitida ijro hokimiyyati kadrlariga nisbatan shubhali kayfiyatda bo'lish, ularning faoliyatini ishonchsizlikka asoslangan holda nazorat qilish talab etilishi aytildi-yu, ammo ularning o'ziga nisbatan ham umuminsoniy qadriyatlar talabidan kelib chiqadigan munosabatda bo'lishga ko'pincha e'tibor berilmaydi. Vaholanki, aynan shunday munosabat orqali ular faoliyatining samaradorligi ta'minlanishi va buning natijasida xalqning farovonlik darajasi ko'tarilishi, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishi mumkin. Buni tarixiy tajribalar ham tasdiqlaydi. Shuning uchun bizningcha, kadrlarga qadriyatli yondashuv va munosabatni amalda ro'yobga chiqarishning zaruriy mexanizmlarini ishga solish maqsadga muvofiq. Jumladan, birinchidan, kadrlarning ijtimoiy maqomini belgilash; ikkinchidan, ularning kasbiy o'sishiga olib keladigan darajada talabchan va qattiqqo'l bo'lish; uchinchidan, kadrlarning moddiy-moliyaviy ta'minoti masalalarini bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos ravishda takomillashtirish hamda ma'naviy-ma'rifiy asoslarini faollashtirish asosida hal qilish va bu orqali mehnatdan qoniqish hissini shakllantirish; to'rtinchidan, ularning javobgarlik sohalarini aniq belgilab qo'yish, bunda kollegial prinsiplarni keng qo'llash; beshinchidan, kadrlar bilan ishlashning an'anaviy tajribalaridan biri bo'lgan «ustoz-shogird» tizimidan oqilona foydalanish kabilar ana shunday mexanizmlar sifatida ko'rsatilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi Qomusi. II.O-H. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashriyoti. T.:2019. 244.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. Toshkent.: "O'ZBEKISTON", 2022. 440.
3. O'qigan o'qdan o'zar. S.f.d., prof.Alisher Fayzullaev bilan suhbat.// Tafakkur. -Toshkent, 2018. №1.
4. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. 160.
5. O'zbekiston Prezidentining parlamentga Murojaatnomasi xorijlik ekspertlar nigohida. // - Toshkent, Xalq so'zi, 27 dekabr, 2017 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil, 22 dekabr. - Toshkent: O'ZBEKISTON, NMIU, 2018.
7. "Yangi O'zbekistonda demokratik jamiyat va rahbar mas'uliyati". Yangi O'zbekiston gazetasi. 2023 yil 22 fevral, 36-son.